XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 27-aprel VII-21-53-2-36-K/26 Kogon tumani

Kogon tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2025-yil 24-dekabrdagi 151-2-36-F/25-sonli farmoyishiga asosan Respublika Aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Buxoro viloyati Kogon tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra umumiy perimetri **473 923** metr, umumiy maydoni **79 094,03** gektar ekanligi aniqlandi. Tumandagi shaharcha va qishloqlarning umumiy uzunligi va umumiy maydonlari quyidagilardan iborat.

Jumladan:

Sarayonobod shaharchasining umumiy perimetri 3853 metr, umumiy maydoni 58,85 gektar;

Tutikunda shaharchasining umumiy perimetri 7351 metr, umumiy maydoni 156,63 gektar;

Bahouddin Naqshband qishlog‘ining umumiy perimetri 34159 metr, umumiy maydoni 3014,45 gektar;

Beklar qishlog‘ining umumiy perimetri 69854 metr, umumiy maydoni 10119,69 gektar;

Guliston qishlog‘ining umumiy perimetri 71119 metr, umumiy maydoni 16852,66 gektar;

Kogon qishlog‘ining umumiy perimetri 28740 metr, umumiy maydoni 2363,67 gektar;

Niyozhoji qishlog‘ining umumiy perimetri 33122 metr, umumiy maydoni 2195,73 gektar;

Nurafshon qishlog‘ining umumiy perimetri 18824 metr, umumiy maydoni 1294,17 gektar;

O‘rtacho‘l qishlog‘ining umumiy perimetri 34640 metr, umumiy maydoni 4408,05 gektar;

Tutikunda qishlog‘ining umumiy perimetri 30982 metr, umumiy maydoni 1675,58 gektar;

Ubacho‘li qishlog‘ining umumiy perimetri 19064 metr, umumiy maydoni 1344,45 gektar;

Xo‘ja yakshaba qishlog‘ining umumiy perimetri 31602 metr, umumiy maydoni
3728,53 gektar;

Yangihayot qishlog‘ining umumiy perimetri 90612 metr, umumiy maydoni 31881,57 gektar;

Kogon tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharchalar va har bir qishloqlarning chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi.

Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Respublika aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Kogon tumanidagi shaharcha va qishloqlarning, shuningdek tumanga bo‘ysunuvchi Kogon shaharchasi chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Kogon tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud(massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhning 2026-yil 27- martdagi № 01-1-sonli yig‘ilish bayonini muhokama qilib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Kogon tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Davlat kadastrlar palatasi Kogon tumani filiali rahbari H.Baqoyevning Kogon tumanidagi shahar, shaharcha hamda qishloqlarning chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Kogon tumanidagi shaharcha va

qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Kogon tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud(massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhning 2026-yil 27-martdagi №01-1-sonli yig‘ilish bayonini ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan 2026-yil 3-aprel kunidagi 01-66-sonli xati inobatga olinsin.

3. Kogon tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga, ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq maqullansin.

4. Kogon tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegara chiziqlarining tavsiflari hamda ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarining kartografik chizmalari 3-15-ilovalarga muvofiq maqullansin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati rahbari (A.Qaxxorov)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi muhokamasiga kiritish uchun yuborilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini ta′minlash tuman hokimining o‘rinbosari M.Shamsiyevga, ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kogon tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e′tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **TURSUNOVA XURMAT TOSHEVNA**

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2026-yil 27-apreldagi
VII-21-53-2-36-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Buxoro viloyati Kogon tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklarining chegaralarini belgilash to‘g‘risida

M A’ L U M O T

№	Ma’muriy-hududiy birliklar nomlari	Umumiy perimetri (metr)	Umumiy yer maydoni (gektar)
1	Sarayonobod shaharchasi	3853	58,85
2	Tutikunda shaharchasi	7351	156,63
3	Bahouddin Naqshband qishlog'i	34159	3014,45
4	Beklar qishlog'i	69854	10119,69
5	Guliston qishlog'i	71119	16852,66
6	Kogon qishlog'i	28740	2363,67
7	Niyozhoji qishlog'i	33122	2195,73
8	Nurafshon qishlog'i	18824	1294,17
9	O‘rtacho‘l qishlog'i	34640	4408,05
10	Tutikunda qishlog'i	30982	1675,58
11	Ubacho‘li qishlog'i	19064	1344,45
12	Xo‘ja yakshaba qishlog'i	31602	3728,53
13	Yangihayot qishlog'i	90612	31881,57
	Jami	**473 923**	**79 094,03**

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2026-yil 27-apreldagi
VII-21-53-2-36-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Buxoro viloyati Kogon tumanining ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari

SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha ***Navoiy viloyati yerlari***
B dan D gacha ***Qoravulbozor tumani yerlari***
D dan E gacha ***Buxoro tumani yerlari***
E dan F gacha ***Kogon shahri yerlari***
F dan G gacha ***Buxoro tumani yerlari***
G dan H gacha ***Buxoro shahri yerlari***
H dan I gacha ***Buxoro tumani yerlari***
I dan A gacha ***Vopkent tumani yerlari***

Shartli belgilar

- Viloyatlar chegarasi
- Tumanlar chegarasi
- Shaharlar va shaharchalar chegarasi
- Qishloqlar (Ovullar) chegaralari

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2026-yil 27-apreldagi
VII-21-53-2-36-K/26 -son qaroriga
3-ilova

Buxoro viloyati Kogon tumanidagi Sarayonobod shaharchasining ma’muriy-hududiy chegara chizig‘i
TAVSIFI

Sarayonobod shaharchasi, Buxoro shahri va Bahouddin Naqshband qishloqlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, Shohrud kanali boʻyida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi *(UzRef-24 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik 39°48'33,076", sharqiy uzoqlik 64°29'42,523").*

A dan B gacha Bahouddin Naqshband qishlogʻi yerlari bilan 1 – 20-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i Shohrud kanalini kesib oʻtib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 129 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'30,802", sharqiy uzoqlik 64°29'47,090").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yoʻlidan quruq ariqqa tutashadi va ariqning oʻng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 140 metr masofani o‘tib, ariq boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'34,506", sharqiy uzoqlik 64°29'50,478").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i quruq ariqning oʻng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 93 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'32,008", sharqiy uzoqlik 64°29'52,555").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 109 metr masofani o‘tib, tomorqa chegarasiga tutashadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 31 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'33,488", sharqiy uzoqlik 64°29'56,773").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa chegarasi boʻylab sharqiy yo‘nalishda 253 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 30 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'34,944", sharqiy uzoqlik 64°30'07,220").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yoʻlini kesib o‘tib, tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab avval sharqiy yoʻnalishda 135 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 56 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-

sharqiy yo‘nalishda 116 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'35,241", sharqiy uzoqlik 64°30'19,209").*

7-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 89 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 191 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'29,265", sharqiy uzoqlik 64°30'27,467").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan avvaljanubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 71 metr, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 197 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'21,104", sharqiy uzoqlik 64°30'29,060").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining avval janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 129 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 51 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan10-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'19,285", sharqiy uzoqlik 64°30'23,576").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 299 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 11-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'19,041", sharqiy uzoqlik 64°30'11,008").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 133 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 12-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'14,751", sharqiy uzoqlik 64°30'11,625").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 98 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 13-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'15,059", sharqiy uzoqlik 64°30'07,526").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan qishloq ichki yo‘liga o‘tadi, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 25 metr masofani o‘tib, qabriston chegarasiga tutashadi va o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmasdan 148 metr masofani o‘tib, qabrston chegarasida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'09,468", sharqiy uzoqlik 64°30'08,028").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i qabriston chegarasi bo‘ylab avval g‘arbiy yo‘nalishda 31 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 9 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 120 metr masofani o‘tib, qabriston chegarasi bo‘yida joylashgan15-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'10,005", sharqiy uzoqlik 64°30'01,613").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i qabriston chegarasi bo‘ylab avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 34 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 84 metr masofani o‘tib,

qabriston chegarasi boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'13,602", sharqiy uzoqlik 64°30'00,967").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi qabriston chegarasidan ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 110 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39° 48' 45,014" sharqiy uzoqlik 64° 29' 54,846").*

17-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 33 metr masofani oʻtadi, keyin toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 34 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi boʻylab shimoliy yoʻnalishda 13 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyidagi 18-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'13,571", sharqiy uzoqlik 64°29'56,349").*

18-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 175 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 34 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 19-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'16,152", sharqiy uzoqlik 64°29'47,071").*


19-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 314 metr masofada Shohrud kanalini kesib oʻtib, kanal boʻyidagi 20-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°48'23,067", sharqiy uzoqlik 64°29'37,417").*

B dan A gacha Buxoro shahri yerlari bilan 20 – 1 - nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

20-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Shohrud kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 336 metr masofani oʻtib, **Sarayonobod** shaharchasi, Buxoro shahri va Bahouddin Naqshband qishloqlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, Shohrud kanali boʻyida joylashgan boshlangʻich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'33,076", sharqiy uzoqlik 64°29'42,523").*

Buxoro viloyati Kogon tumani Sarayonobod shaharchasining ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari

SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha ***Bahouddin Naqshband qishlog'i yerlari***

B dan A gacha ***Buxoro shahri yerlari***

Shartli belgilar

1 Chegara burilish nuqtasi

Chegara ichki maydoni

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2026-yil 27-apreldagi
VII-21-53-2-36-K/26 -son qaroriga
4-ilova

Buxoro viloyati Kogon tumanidagi Tutikunda shaharchasining ma’muriy-hududiy chegara chizig‘i

TAVSIFI

Tutikundashaharchasi, Tutikunda va Beklar qishloqlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, zovur bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi *(UzRef-24 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik 39°42'55,641", sharqiy uzoqlik 64°29'26,263").*

A dan B gacha Beklar qishlog‘i yerlari bilan 1 – 2 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval janubiy yo‘nalishda 135 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 71 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'49,047", sharqiy uzoqlik 64°29'25,499").*

B dan A gacha Tutikunda qishlog‘i yerlari bilan 2 – 1 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, haydalma yer chegarasiga tutashadi va umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 123 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasidagi 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'45,395", sharqiy uzoqlik 64°29'23,504").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 149 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasidagi 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'47,415", sharqiy uzoqlik 64°29'17,845").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 12 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 80 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yidagi 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'50,329", sharqiy uzoqlik 64°29'18,435").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 420 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yidagi 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'56,025", sharqiy uzoqlik 64°29'02,425").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 939 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi
7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'26,772", sharqiy uzoqlik 64°28'51,708").*

7-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, tomorqa devoriga tutashadi va tomorqa devori bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 191 metr masofada haldalma yer chegarasidagi 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'28,358", sharqiy uzoqlik 64°28'43,943").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 119 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yidagi 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'32,068", sharqiy uzoqlik 64°28'45,190").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 162 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yidagi 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'32,835", sharqiy uzoqlik 64°28'38,474").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 120 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yidagi 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'28,985", sharqiy uzoqlik 64°28'37,713").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, haydalma yer chegarasiga tutashadi va haydalma yer chegarasi bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 101 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi, so‘ng tomorqa devori bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 18 metr masofani o‘tib, devor bo‘yidagi 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'29,177", sharqiy uzoqlik 64°28'33,395").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa devori bo‘ylab avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 23 metr, keyin umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 89 metr masofani o‘tib, devor bo‘yidagi 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'26,603", sharqiy uzoqlik 64°28'31,505").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa devori bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 142 metr masofada dala tuproq yo‘lni kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'27,774", sharqiy uzoqlik 64°28'25,759").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 310 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yidagi 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'37,725", sharqiy uzoqlik 64°28'27,433").*

15-nuqtadan chegara chizigʻi kanalni kesib oʻtib, tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 241 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyidagi 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'38,118", sharqiy uzoqlik 64°28'17,365").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan avval umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 135 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 122 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'45,564", sharqiy uzoqlik 64°28'17,612").*

17-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan haydalma yer chegarasiga oʻtadi va haydalma yer chegarasi bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 135 metr masofani oʻtib, tomorqa devori boʻyidagi 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'45,055", sharqiy uzoqlik 64°28'23,231").*

18-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab shimoliy yoʻnalishda 76 metr masofani oʻtib, tomorqa devori boʻyidagi 19- nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'47,511", sharqiy uzoqlik 64°28'23,516").*

19-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab sharqiy yoʻnalishda 109 metr masofani oʻtib, tomorqa devori boʻyidagi 20- nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'47,099", sharqiy uzoqlik 64°28'28,045").*

20-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devoridan zovurga oʻtadi va shimoliy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 196 metr masofani oʻtib, tomorqa devori boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'53,416", sharqiy uzoqlik 64°28'29,083").*

21-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 103 metr masofani oʻtib, tomorqa devori boʻyidagi 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'53,712", sharqiy uzoqlik 64°28'24,768").*

22-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab shimoliy yoʻnalishda 146 metr masofani oʻtadi, keyin toʻgʻri chiziq orqali oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 18 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyidagi 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'59,017", sharqiy uzoqlik 64°28'25,255").*

23-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 51 metr masofada haydalma yer chegarasiga oʻtib, haydalma yer chegarasi boʻylab shimoliy yoʻnalishda 117 metr masofada ariq boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'03,020", sharqiy uzoqlik 64°28'27,971").*

24-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 85 metr masofada Shexon kanalini kesib oʻtib,

kanal bo‘yidagi 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'02,927", sharqiy uzoqlik 64°28'31,519").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda Shexon kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 588 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yidagi 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'21,883", sharqiy uzoqlik 64°28'34,258").*

26-nuqtadan chegara chizig‘i Shexon kanalidan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 412 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 22 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'19,733", sharqiy uzoqlik 64°28'51,256").*

27-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 332 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 91 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yidagi 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'16,681", sharqiy uzoqlik 64°29'08,520").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 117 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'19,881", sharqiy uzoqlik 64°29'11,162").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 352 metr masofani o‘tib, zovurning bo‘yidagi 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'12,349", sharqiy uzoqlik 64°29'22,266").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 173 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 29 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'06,829", sharqiy uzoqlik 64°29'19,914").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 143 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'02,915", sharqiy uzoqlik 64°29'16,784").*


32-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 273 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'58,225", sharqiy uzoqlik 64°29'26,474").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 80 metr masofani o‘tib, **Tutikunda**shaharchasi, Tutikunda va Beklar qishloqlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, zovur

bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'55,641", sharqiy uzoqlik 64°29'26,263").*

Buxoro viloyati Kogon tumani Tutikunda shaharchasining ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari

SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha ***Beklar qishlog'i yerlari***

B dan A gacha ***Tutikunda qishlog'i yerlari***

Shartli belgilar

1 Chegara burilish nuqtasi

Chegara ichki maydoni

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2026-yil 27-apreldagi
VII-21-53-2-36-K/26 -son qaroriga
5-ilova

Buxoro viloyati Kogon tumanidagi Bahouddin Naqshband qishlog‘ining ma’muriy-hududiy chegara chizig‘i

TAVSIFI

Bahouddin Naqshband, Buxoro tumani va Kogon qishloqlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, Shohrud kanali bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(UzRef-24 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik 39°50'35,045", sharqiy uzoqlik 64°31'12,026").*

A dan B gacha Kogon qishlog‘i yerlari bilan 1 – 2 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 12 metr masofada Shohrud kanalini kesib o‘tadi va kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda 66 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 343 metr masofada kanalga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 1050 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°50'07,161", sharqiy uzoqlik 64°31'56,642").*

B dan D gacha Niyozhoji qishlog‘i yerlari bilan 2 – 13 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan chegara chizig‘i kanalni va Xonobod arig‘ini kesib o‘tib, haydalma yer chegarasiga tutashadi va avval janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 245 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 187 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 26 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 41 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°49'53,280", sharqiy uzoqlik 64°31'50,721").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomon ko‘tarmasi bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 279 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 374 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 58 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 673 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°49'10,507", sharqiy uzoqlik 64°31'51,264").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomon ko‘tarmasi bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 965 metr masofani o‘tib, zovur quyilishidagi 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'40,144", sharqiy uzoqlik 64°31'47,896").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi avval sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomon koʻtarmasi bilan 65 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 80 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'36,993", sharqiy uzoqlik 64°31'50,528").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomon koʻtarmasi bilan 303 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'33,668", sharqiy uzoqlik 64°32'02,387").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomon koʻtarmasi bilan 391 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'22,047", sharqiy uzoqlik 64°31'56,140").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomon koʻtarmasi bilan 251 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'19,956", sharqiy uzoqlik 64°32'06,211").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan avval janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 445 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 186 metr masofani oʻtib, piyodalar yoʻlagi boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'00,295", sharqiy uzoqlik 64°31'59,632").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi piyodalar yoʻlagining shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 498 metr masofani oʻtib, yoʻlak boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'00,797", sharqiy uzoqlik 64°32'20,519").*

11-nuqtadan chegara chizigʻi piyodalar yoʻlagining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 607 metr masofani oʻtib, yoʻlak boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°47'50,264", sharqiy uzoqlik 64°32'41,829").*

12-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 28 metr masofada piyodalar yoʻlagini va R-69 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, Shanga arigʻiga texnik xizmat koʻrsatuvchi dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 1114 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°47'13,382", sharqiy uzoqlik 64°32'38,754").*

D dan E gacha Ubachoʻli qishlogʻi yerlari bilan 13 – 21 - nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

13-nuqtadan chegara chizigʻi Shanga arigʻiga texnik xizmat koʻrsatuvchi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy

yoʻnalishda 61 metr masofada haydalma yer chegarasiga tutashadi va gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 101 metr masofani oʻtib, zovur koʻtarmasiga tutashadi, soʻng zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomon koʻtarmasi bilan gʻarbiy yoʻnalishda 543 metr masofada kanalni kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°47'13,337", sharqiy uzoqlik 64°32'10,577").*

14-nuqtadan chegara chizigʻi kanalning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1288 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 629 metr masofada kanalni kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°46'12,454", sharqiy uzoqlik 64°31'55,551").*

15-nuqtadan chegara chizigʻi kanalning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 85 metr masofada zovurni kesib oʻtib, haydalma yer chegarasiga tutashadi va haydalma yer chegarasi boʻylab oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 718 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarasi boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°46'07,517", sharqiy uzoqlik 64°31'22,619").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi haydalma yer chegarasi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 215 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 310 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°45'52,606", sharqiy uzoqlik 64°31'12,007").*

17-nuqtadan chegara chizigʻi, dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 310 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°45'57,497", sharqiy uzoqlik 64°31'01,974").*

18-nuqtadan chegara chizigʻi, dala tuproq yoʻlidan haydalma yer chegarasiga oʻtadi va haydalma yer chegarasi boʻylab janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 159 metr masofada zovur koʻtarmasiga tutashadi, keyin zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 376 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°45'46,707", sharqiy uzoqlik 64°30'44,659").*

19-nuqtadan chegara chizigʻi, avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 752 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°45'24,001", sharqiy uzoqlik 64°30'33,171").*

20-nuqtadan chegara chizigʻi, avtomobil yoʻlidan zovur koʻtarmasiga tutashadi va zuvurning suv oqimi boʻylab oʻng tomon koʻtarmasi bilan umumiy

janubiy yoʻnalishda 1055 metr masofani oʻtadi, keyin toʻgʻri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 59 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'48,263", sharqiy uzoqlik 64°30'35,999").*

E dan F gacha Beklar qishlogʻi yerlari bilan 21 – 32 nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

21-nuqtadan chegara chizigʻi avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zuvurning suv oqimiga qarshi chap tomon koʻtarmasi bilan 317 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 261 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'58,616", sharqiy uzoqlik 64°30'16,367").*

22-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, zovur koʻtarmasiga tutashadi va shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zuvurning suv oqimiga qarshi chap tomon koʻtarmasi bilan 300 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°45'05,195", sharqiy uzoqlik 64°30'07,248").*

23-nuqtadan chegara chizigʻi zovur koʻtarmasidan haydalma yer chegarasiga tutashadi va gʻarbiy yoʻnalishda 389 metr masofada zovurni va kanalni kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°45'05,265", sharqiy uzoqlik 64°29'50,934").*

24-nuqtadan chegara chizigʻi kanalning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 325 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan

25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'56,447", sharqiy uzoqlik 64°29'58,362").*

25-nuqtadan chegara chizigʻi kanaldan toʻgʻri chiziq orqali dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 344 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'49,154", sharqiy uzoqlik 64°29'47,666").*

26-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 301 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'55,428", sharqiy uzoqlik 64°29'38,019").*

27-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 555 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'41,031", sharqiy uzoqlik 64°29'24,096").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 292 metr masofani o‘tib, tomorqa devori bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'32,210", sharqiy uzoqlik 64°29'28,364").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa devori bo‘ylab avval g‘arbiy yo‘nalishda 55 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 134 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tadi, so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 14 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'34,916", sharqiy uzoqlik 64°29'21,596").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 222 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'38,643", sharqiy uzoqlik 64°29'13,623").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 132 metr masofada E60 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'35,117", sharqiy uzoqlik 64°29'10,479").*

F dan G gacha Tutikunda qishlog‘i yerlari bilan 32 – 33 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

32-nuqtadan chegara chizig‘i E60 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 598 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'45,371", sharqiy uzoqlik 64°28'49,174").*

G dan H gacha Buxoro shahri yerlari bilan 33 – 38 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

33-nuqtadan chegara chizig‘i E60 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, Shohrud kanaliga tutashadi va shimoliy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 3967 metr masofada o‘tib, kanal bo‘yidagi 34-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 39°46'52,001", sharqiy uzoqlik 64°29'15,802").*

34-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda Shohrud kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2258 metr masofanio‘tib, 4R69 avtomobil yo‘li bo‘yidagi 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'04,978", sharqiy uzoqlik 64°29'22,871").*

35-nuqtadan chegara chizig‘i 4R69 avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va shimoliy yo‘nalishda Shohrud kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 352 metr masofada kanalni kesib o‘tib, kanal bo‘yidagi 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'16,283", sharqiy uzoqlik 64°29'24,622").*

36-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Shohrud kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 135 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 185 metr masofani o‘tib, kanal burilishidagi37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'20,910", sharqiy uzoqlik 64°29'36,285").*

37-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Shohrud kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 72 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yidagi38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'23,067", sharqiy uzoqlik 64°29'37,417").*

H dan I gacha Sarayonobod shaharchasi yerlari bilan 38 – 57 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

38-nuqtadan chegara chizig‘i Shohrud kanalini kesib o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 314 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'16,152", sharqiy uzoqlik 64°29'47,071").*

39-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 34 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 175 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'16,118", sharqiy uzoqlik 64°29'55,777").*

40-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lidan ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 13 metr masofani o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 34 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 33 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'13,571", sharqiy uzoqlik 64°29'56,349").*

41-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 110 metr masofani o‘tib, qabriston chegarasi bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'13,602", sharqiy uzoqlik 64°30'00,967").*

42-nuqtadan chegara chizig‘i qabriston chegarasi bo‘ylab avval janubiy yo‘nalishda 84 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 34 metr masofani o‘tib, qabriston chegarasi bo‘yida joylashgan43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'10,005", sharqiy uzoqlik 64°30'01,613").*

43-nuqtadan chegara chizig‘i qabriston chegarasi bo‘ylab avval sharqiy yo‘nalishda 120 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 9 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 31 metr masofani o‘tib, qabriston chegarasi bo‘yida joylashgan44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'09,468", sharqiy uzoqlik 64°30'08,028").*

44-nuqtadan chegara chizigʻi qabriston chegarasi boʻylab shimoliy yoʻnalishda 148 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmasdan 25 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'15,059", sharqiy uzoqlik 64°30'07,526").*

45-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 98 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'14,751", sharqiy uzoqlik 64°30'11,625").*

46-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda 133 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'19,041", sharqiy uzoqlik 64°30'11,008").*

47-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 299 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'19,285", sharqiy uzoqlik 64°30'23,576").*

48-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining avval sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 51 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 129 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'21,104", sharqiy uzoqlik 64°30'29,060").*

49-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan avval umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 197 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 71 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'29,265", sharqiy uzoqlik 64°30'27,467").*

50-nuqtadan chegara chizigʻi avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 191 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 89 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'35,241", sharqiy uzoqlik 64°30'19,209").*

51-nuqtadan chegara chizigʻi zovurdan tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 116 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 56 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 135 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'34,944", sharqiy uzoqlik 64°30'07,220").*

52-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 30 metr masofada tomorqa chegarasiga oʻtadi, keyin tomorqa chegarasi boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 253 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'33,488", sharqiy uzoqlik 64°29'56,773").*

53-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 31 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 109 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'32,008", sharqiy uzoqlik 64°29'52,555").*

54-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lidan quruq ariqqa tutashadi va ariqning chap tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 93 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'34,506", sharqiy uzoqlik 64°29'50,478").*

55-nuqtadan chegara chizig‘i quruq ariqning chap tomoni bilanjanubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 140 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'30,802", sharqiy uzoqlik 64°29'47,090").*

56-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 129 metr masofada Shohrud kanalini kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'33,076", sharqiy uzoqlik 64°29'42,523").*

I dan J gacha Buxoro shahri yerlari bilan 57 – 62 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

